

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Nukus filiali direktori:

Kaipbergenov Batirbek Tulepbergenovich

Faks: (8361) 222-49-10

Telefon: (8361) 222-49-10

E-mail: kbatyrbek@umail.uz

Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Nukus filiali O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to`g`risida" gi Farmoni va 2005 yil 2-iyuldagi "Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to`g`risida" gi Qaroriga muvofiq O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2005 yil 17-iyundagi 130-sonli buyrug`i bilan tashkil etilgan.

Hozirgi kunda filialda 1 ta fakultet, 6 ta kafedra mavjud bo`lib, ularda 48 nafar professor-o`qituvchilar, shulardan 3 ta fan doktori va professor, 9 nafar dotsent va fan nomzodlari faoliyat olib bormoqdalar. Filialning 1 ta magistr hamda 5 ta bakalavriat talim yo`nalishlari bo`yicha jami 624 nafar talaba tahsil olmoqda.

Filialda 180 ta hozirgi zamonaviy kompyuterlar mavjud bo`lib, ulardan o`quv jarayonida bevosita 158 tasi foydalaniladi va 5 talabaga 1 ta kompyuterdan to`g`ri keladi. Filialda barcha kompyuterlar bir-biri bilan lokal tarmoqqa 2 ta server kompyuteri orqali ulangan. Filialda 2 ta EPSON EB-595Wi interaktiv videoproektor, 8 ta proyektor va 5 ta elektron, 2 ta keng formatli avtomatik boshqariladigan doskalar mavjud bo`lib, professor o`qituvchilar maruza va laboratoriya ishlarini ushbu texnik vositalari orqali amalga oshirish imkoniga ega.

Filial axborot texnologiyalari markazi tomonidan filialning Web sahifasi yaratilgan bo`lib, doimiy ravishda yangilanib borilmoqda. Filial Web sahifasida filial tarixi, tarkibiy tuzilmasi, bugungi kundagi fakultet, kafedra, bo`limlar hamda ularning ilmiy, ta`lim tizimidagi faoliyatlari haqida ma`lumotlar o`z aksini topgan.

Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Nukus filiali quyidagi yo`nalishlar bo`yicha bakalavrlar tayyorlaydi:

- Kompyuter injiniring ("Kompyuter injiniring", "IT-servis");
- Dasturiy injiniring;
- Axborot xavfsizligi;
- Telekommunikatsiya injiniringi;
- Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasbiy ta`limi.

Bituruvchilar ish faoliyati

Filialda 2015/2016 o`quv yili yakunlanishi bilan 135 bakalavr va 7 magistrga "hayotga" yo`llanma berildi. Ular mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalari, xalq ta`limi, oliy ta`lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari, bank va moliya tuzilmalarida faoliyat yuritadilar.

Nukus filiali nizomi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali murojaat ma`lumotlari:

- Tel.: (8 361) 222-49-10
- Faks: (8 361) 222-46-12, 222-14-53
- E-mail: tatunf@tuit.uz
- Rasmiy veb sahifasi: www.tatunf.uz